



IQTISODIY XAVFSIZLIK: MILLIY BARQARORLIK VA RIVOJLANISH
OMILI SIFATIDA

Qurbonova Sitora Vahobjon qizi

*Tashkent state university of economics,
Faculty of finance and accounting, bachelor
sitoraqurbonova982@gmail.com*

Annotatsiya. *Mazkur tezis ishida iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi va uning jamiyat hayotidagi o'rni yoritiladi. Insoniyat qadimdan xavfsizlikka intilib kelgan bo'lib, iqtisodiy barqarorlik uning ajralmas qismi hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning asosiy elementi bo'lib, u nafaqat davlat miqyosida, balki har bir fuqaroning farovonligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ishda bozor iqtisodiyoti sharoitida yuzaga keladigan xavf va tahdidlar, ularni yumshatish yo'llari, shuningdek, davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni va zaruriy choralari tahlil qilinadi. Shuningdek, iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ilmiy asoslangan yondashuvning ahamiyati alohida ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *Iqtisodiy xavfsizlik, milliy xavfsizlik, barqarorlik, bozor iqtisodiyoti, davlat aralashuvi, tahdidlar, tavakkalchilik, iqtisodiy qarorlar, ilmiy asoslangan yondashuv, makroiqtisodiy barqarorlik*

Iqtisodiy xavfsizlik zamonaviy davrda davlatning barqaror rivojlanishi va milliy manfaatlarini himoya qilishning eng muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu tushuncha iqtisodiy tizimning tashqi va ichki tahdidlarga qarshi bardoshlilikini, uning barqaror ishlashini va doimiy rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy omillarning o'zaro uyg'unligini aks ettiradi. Iqtisodiy xavfsizlik tizimi milliy manfaatlar, iqtisodiyotning mustaqilligi va barqarorligi, jamiyatning yalpi ehtiyojlarini qondirish hamda global iqtisodiyotda munosib o'rin egallashni ko'zda tutadi.

Iqtisodiy xavfsizlik kategoriyasini to'liq tushunish uchun eng avvalo "xavfsizlik" tushunchasini aniqlash lozim. Xavfsizlik deganda ijtimoiy organizmning hayotiy muhim manfaatlarini, tuzilmasi tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganligi va uning barqaror rivojlanish holati tushuniladi. Xavfsizlikka intilish har qanday biologik va ijtimoiy tizimga xos bo'lib, ayniqsa inson jamiyatida bu tushuncha chuqur o'rganiladi va ilmiy asosda himoya mexanizmlari yaratiladi. Insoniyat faqat tahdidlarni aniqlabgina qolmay, balki ularga qarshi samarali kurashish yo'llarini ishlab chiqadi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy vazifalaridan biri milliy iqtisodiyotning ichki va tashqi tahdidlarga bardosh berishini ta'minlash, uning mustaqilligi va barqarorligini saqlashdir. Shu bilan birga, iqtisodiy xavfsizlik davlatning strategik vazifalaridan biri bo'lib, u milliy va mintaqaviy darajada yangi yondashuvlar va zamonaviy strategiyalarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Globallashtirish jarayonlari chuqurlashib, ishlab chiqarish, energetika, oziq-ovqat va moliya sohalaridagi inqiroz xavflari kuchayib borayotgan bir paytda, iqtisodiy






TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi. Iqtisodiy xavfsizlik fanining predmeti globallashuv va iqtisodiy noaniqlik sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, ijtimoiy ehtiyojlarni optimal darajada qondirish, milliy va xalqaro miqyosda iqtisodiy manfaatlarining himoyalanganligi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarni o'rganishdan iboratdir. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda milliy qonunchilik, davlat organlari, hududiy hokimiyatlar, fuqarolik jamiyati institutlari, yirik kompaniyalar va tadbirkorlar faol ishtirok etadi.

Iqtisodiy xavfsizlikning bosh mezoni mamlakat ehtiyojlarining uzluksiz ta'minlanishini kafolatlashdan iborat bo'lib, bu o'z navbatida ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, xarajatlarni kamaytirish va eksport-import aloqalarini strategik sheriklik asosida yo'lga qo'yishni talab etadi. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikning asosiy tamoyillari sifatida iqtisodiy tizimning quyi chegaralarini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar qo'llanadi. Bu ko'rsatkichlar past bo'lsa, iqtisodiy tizim uchun tahdidlar yuzaga kelib, tizimning izdan chiqish xavfi kuchayadi. Davlat iqtisodiy xavfsizlikning bosh subyekti sifatida o'zining qonunchilik, ijro va sud organlari orqali ushbu yo'nalishda zarur choralarni amalga oshiradi. Bundan tashqari, banklar, fondlar, sug'urta va pensiya kompaniyalari, iste'molchilar uyushmasi kabi fuqarolik jamiyati institutlari ham iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda faol ishtirok etadi. Iqtisodiy xavfsizlik obyektlari esa shaxsning huquq va erkinliklari, davlatning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligi kabi muhim qadriyatlarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar





Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, iqtisodiy xavfsizlik — bu mamlakat, hudud, firma, kompaniyaning iqtisodiy inqirozga uchrash xavfidan himoya qilish bo'yicha ko'radigan chora-tadbirlari majmuidir. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadidayirik firma, kompaniyalarda maxsus xizmatlar tashkil qilinadi. Ular bozorni o'rganish, talab va taklifni bashoratlash, ilmiy-texnik taraqqiyotni kuzatish hamda boshqa ishlarni bajaradi. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda mahsulot turini muntazam yangilab turish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, xarajatlarni qisqartirish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi davrdagi globallashuv sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun quyidagilar taqozo etiladi:

- birinchidan, jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etib, milliy
 - ishlab chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratish;
- ikkinchidan, jahonda sodir bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy
 - noxush hodisalar salbiy oqibatlarining milliy iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirishga erishish. Alohida ta'kidlash joizki, ochiq iqtisodiyot
 - sharoitida tashqi tahdidlar ta'sirini butunlay yo'q qilish, unga barham
 - berish mumkin emas.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy xavfsizlik davlatning iqtisodiy mustaqilligi, barqaror rivojlanishi va milliy manfaatlarini ishonchli himoya qilishning eng muhim kafolati hisoblanadi. U mamlakatning ichki barqarorligi va tashqi tahdidlarga bardoshlilikini ta'minlaydi, iqtisodiy inqiroz va tanglik holatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Zamonaviy globallashuv jarayonlari va bozor iqtisodiyotidagi o'zgarishlar sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun davlat, tadbirkorlar va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorlikdagi sa'y-harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar har bir fuqaro va mutaxassis uchun zarur bo'lib, mamlakat taraqqiyotining muhim omili sifatida qaraladi.

References:

1. Karimov, I.A. (1997). O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent: O'zbekiston.
2. Xudayberganov, Q.X., Yusupov, B.Y. (2018). Milliy iqtisodiyot asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot va huquq nashriyoti.
3. Uzbekistan Cabinet of Ministers. (2020). "Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha davlat siyosati asoslari to'g'risida" qarori. Qonunchilik hujjatlari bazasi.
4. Ergashev, B., & Gulomov, S. (2021). Globalizatsiya sharoitida O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligi: muammolar va yechimlar. Toshkent: Fan nashriyoti.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



5. UNCTAD. (2023). Economic security in developing economies: Challenges and policy recommendations. Geneva: United Nations Publications. <https://unctad.org>
6. National Development Strategy of Uzbekistan 2017-2021. (2017). Official document of the Government of Uzbekistan. <https://strategy.uz>
7. Ganiev, B., & Saidov, A. (2019). Iqtisodiyotda xavfsizlik va barqarorlik: nazariya va amaliyot. Toshkent: Universitet nashriyoti.

